

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TURSUNOV BEKMUXAMMAD OMONOVICH**

**MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGI VA UNI OSHIRISH  
YO‘LLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Tursunov Bekmukhammad Omonovich**

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va uni oshirish yo‘llari .....3

**Турсунов Бекмухаммад Омонович**

Конкурентоспособность национальной экономики и пути ее повышения .....25

**Tursunov Bekmukhammad Omonovich**

Competitiveness of the national economy and ways to improve it .....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TURSUNOV BEKMUXAMMAD OMONOVICH**

**MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGI VA UNI OSHIRISH  
YO‘LLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Iqt867 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Bababekova Dilfuza Sherqulovna  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Nasirxodjayeva Dilafro'z Sabitxanovna  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "08" 05 kuni soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (143 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "22" 04 da tarqatildi.  
(2024-yil "22" 04 da 48 raqamli reyestr bayonnomasi.)



S.K. Xudoyqulov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. Gafurov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining davriy rivojlanish harakati bilan bog‘liq tebranishlar hamda moliyaviy-iqtisodiy beqarorlikning yuzaga kelishi, xalqaro maydonda iqtisodiy resurslar uchun kurashning kuchayib borishi bilan bir qatorda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish jarayonlarini sezilarli darajada ortib borishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI)ning 2023-yildagi hisobotida, “2023-yildagi raqobatbardoshlikka doir tahlil natijalari jahon iqtisodiyotida inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga doir global bo’shliq mavjudligini ko‘rsatadi. 2023-yilda global raqobatbardoshlik bo‘yicha maksimal 100 balldan o‘rtacha global ball 43,3 ballni tashkil etgan. Shuningdek, bu ko‘rsatkichga doir trend tahlil natijalari ayrim mamlakatlar iqtisodiyotida texnologik taraqqiyotga ustuvorlik berilmasligi, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari kesimida intellektual kapitaldan foydalanish ko‘lamining pastligi hisobidan 2025–2030-yillar oralig‘ida ushbu mamlakatlarda nol darajadagi iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari saqlanib qolishi”<sup>1</sup> qayd etiladi. O‘z navbatida yuqoridagilar bilan birga uzoq yillik raqobatbardoshlik indeksini shakllantirishda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro maqsadli rivojlanish dasturlarini shakllantirish, globallashtirish jarayonlari hamda “Covid-19” pandemiyasi ta’sirida iqtisodiyotning turli sohalarida tebranishlar vujudga kelishini hisobga olib iqtisodiy o‘shishning kelajakdagi yo‘nalishlari uchun yangi strategiyalarni belgilash maqsadga muvofiqligi”<sup>2</sup> ta’kidlangan. Bu esa jahon miqyosida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish masalalarining dolzarb ahamiyatini namoyon etadi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi sharoitida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini tadqiq etishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga nisbatan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, raqobatbardoshlikni baholash uslubiyotini takomillashtirish, yetakchi tarmoqlar raqobatbardoshligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, raqobatbardoshlikni oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, iqtisodiy-matematik modellashtirish, investitsion faollikni ta’minlash, ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviyligi, innovatsion soha samaradorligini ta’minlashga ta’sirini baholash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda xalqaro darajadagi raqobat muhitiga moslashish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilayotgan bo‘lib, bu borada respublika iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb vazifalarning kompleks yo‘nalishlari “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori

---

<sup>1</sup> The Sustainable Competitiveness Report, 12th edition November, 2023. 8 p. Methodology, data gathering, calculation, & report compilation by SolAbility. © SolAbility. Published under Creative Commons Attribution-NonCommercialShareAlike 4.0 International License <https://solability.com/the-global-sustainable-competitiveness-index/the-index>

<sup>2</sup> The Global Competitiveness Report Special Edition 2020: How Countries are Performing on the Road to Recovery. <https://www.studocu.com/row/document/helwan-university/advanced-heat-transfer/global-competitiveness-report-2020/11595531>

bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish doirasidagi maqsadlarga muvofiq eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash"<sup>3</sup> kabi qator vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari raqobatbardoshligini reyting asosida baholash, eksport faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan tabaqalashgan imtiyozlar tizimini joriy etish orqali hududlar eksportini olg'a siljitish strategiyasini asoslash, investitsiya dasturining tuzilmaviy tarkibini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga muvofiqlashtirish orqali tashqi savdodagi mutanosiblikni ta'minlash, innovatsiyalardan samarali foydalanish hamda innovatsiyalarni ayriboshlash tizimining samaradorligini oshirish muammolariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2021-yil 9-iyundagi PF–6244-son “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2020-yil 6-iyuldagi PF–6019-son “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2020-yil 18-avgustdagi PF–6042-son “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari, 2020-yil 7-maydagi PQ–4707-son “Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmini tadqiq etishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va uni oshirish masalalari alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, raqobatbardoshlikning mutloq va nisbiy asosda shakllanish xususiyatlari to'g'risidagi muammolar ilk bor A.Smit, D.Rikardo, M.Porter, P.Krugman, M.Obstfeld, M.Pozner, G.E.Jonson, F.P.Stafford, J.Dunning, E.Bannerman, S.M.Lundan, L.Budd, A.K.Hirmis va boshqalar tomonidan mamlakatning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini tavsiflovchi mezonlar va ko'rsatkichlarni aniqlashga nisbatan qator ilmiy

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF–158-sonli Farmoni.

yondashuvlar amalga oshirilgan<sup>4</sup>. Shu bilan birga raqobatbardoshlikning xalqaro darajasini shakllanishi va rivojlanish jarayonlariga doir qator tadqiqotlar MDH iqtisodchi olimlaridan G.L.Azoev, A.P.Chelenkov, R.A.Fatxutdinov, A.A.Anuchin, A.A.Surmalyan, A.N.Zaxarov, I.P.Danilov, T.G.Filosofova va boshqalar tomonidan olib borilgan<sup>5</sup>.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etishning ilmiy asoslarini yoritishga doir tadqiqotlar o'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan D.S.Nasirxodjayeve, Sh.D.Ergashxodjayeve, A.F.Rasulev, T.T.Jo'rayev, Sh.Sh.Shodmonov, U.V.Gafurov, M.T.Yaxshiyeva, A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeve, Sh.X.Xajibakiyev, D.Sh.Bababekova, L.O.'Mingishov, D.S.Salayev, F.T.Egamberdiyev, D.A.Elov, A.A.Xolmirzayev, R.N.Raxmonov, S.N.Babaxadjayeve, U.T.Egamberdiyeva, T.I.Mardonaqulov, X.X.Egamberdiyev, R.A.Amirov<sup>6</sup> va boshqalar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Biroq, hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va uni oshirish yo'llarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan kompleks maxsus yo'naltirilgan mustaqil izlanishlar olib borilmagan. Bu esa, mazkur muammoning

---

<sup>4</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Эксмо, 2016. с. 255.; Рикардо Д. Начало политической экономии и налогообложения. - М.: Эксмо, 2016. 1040-стр.; Porter М.Е. The Competitive Advantage of Nations. – Free Press; 1 edition (Jun 1 1998). – 896 p.; Кругман П.Р., Обстфельд М. Международная экономика: Теория и политика – М.: Экон. Фак. Моск.гос. ун-та: ЮНИТИ, 1997. 769 с.; Познер М.Международная торговля и изменение технологии //Веки экономической мысли. Международная экономика. М.: ТЕИС, 2006. С.436., Johnson G.E., Stafford F.P. “International Competition and Real Wages”, American Economic Review Papers and Proceedings, 83, 127-130, May 1993., Dunning J., Bannerman E., Lundan S.M. (1998) Competitiveness and industrial policy in Northern Ireland. Monograph 5. – Belfast: Northern Ireland Research Council., Budd L., Hirmis A.K. (2004) Conceptual framework for regional competitiveness // Regional Studies. – No 38(9). – P. 1015–1028.

<sup>5</sup> Азоев Г.Л., Челенков А.П. Конкурентные преимущества фирмы. - М.: ОАО «Типография «Новости», 2000. - 256 с.; Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. – М.: Инфра-М, 2000. – 312 с., Анучин А.А. Конкурентоспособность стран и регионов. Учебное пособие. Гриф УМО МО РФ. - М.: КноРус, 2020. - 116 с., Сурмалян, А.А. Обеспечение международной конкурентоспособности стран с трансформационной экономикой: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.14. - Ростов-на-Дону, 2005. -222 с., Захаров А.Н. Экономическая сущность, методы оценки и механизмы увеличения конкурентоспособности (мировой опыт). Внешнеэкономический бюллетень № 4, 2004., Данилов И.П. Конкурентоспособность регионов России. Теоретические основы и методология. - М.: Канон+РООИ "Реабилитация", 2016. - 368 с., Филюсова Т.Г. Конкуренция. Инновации. Конкурентоспособность. - М.: Юнити-Дана, 2015. - 296 с.

<sup>6</sup> Д.С.Насирходжаева. Пути повышения конкурентоспособности потребительской продукции Республики Узбекистан. Автореф. дисс. канд. экон. наук, Тошкент, 2002 й. 21 с., Ergashxodjaeva Sh.D. Xalqaro raqobat. O'quv qo'llanma.-Т.: TDIU, 2013.-328 б.; Ўзбекистон: жахон молиявий-иктисодий инкирози, инновацион тараққиёт ва миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш/ЎзФА, Иқтисодиёт ин-ти; А.Ф.Расулевнинг тахрири остида.-Т.: Konsauditinform-Nashr, 2011.- 408 б.; Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-Т., “Fan va texnologiyalar”, 2018.- 584 б.; Shodmonov Sh.Sh, G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Т., “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2005. 784 б.; Яхшиева М.Т. Ҳозирги заман рақобат назарияси: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2019.–280 бет.; Vahabov A.V., Tadjibayeve D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik.-Т.:Baktria press, 2015.-584 б.; Бабабекова Д.Ш. Шақллаанётган бозор муносабатлари тизимида рақобат ва унинг амал қилиш хусусиятлари. и.ф.н. дисс. Автореферат.-Т., 2005.-26 б.; Мингишов Л.Ў. Ўзбекистоннинг экспорт рақобатбардошлигини оширишнинг асосий йўналишлари. и.ф.д (PhD) дисс. автореферати.–Т., 2018.- 22 б.; Салаев Д.С. Миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини оширишнинг устувор йўналишлари// Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2018, №5, 7-13 б.; Эгамбердиев Ф.Т., Элов Д.А., Холмирзаев А.А., Рахмонов Р.Н., Бабаходжаев С.Н., Эгамбердиева У.Т., Мардонақулов Т.И., Эгамбердиев Х.Х. Монография. Т., 2020. -204 б.; Амиров Р.А. Экспорт образовательных услуг как важнейший фактор повышения конкурентоспособности и экономического развития страны. Власть и экономика. №8. 2018. DOI10.22394/1726139-2018-71-81.

hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi va ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish uchun asos bo'ladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent moliya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-050-raqamli "Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini modernizatsiyalash orqali raqobatbardoshlikni oshirishning fundamental asoslari" (2017-2020 y.y.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga bag'ishlangan ilmiy qarashlarni tavsiflash, tasniflash va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini baholashning mezonini va ko'rsatkichlarini tasniflash, ularni rivojlanish omillariga muvofiq guruhlash jarayonining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash;

milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini hozirgi holatini tahlil qilish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini tizimli rivojlanish jarayonlarini aniqlash;

sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribalari va undan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellashtirish orqali 2030-yilga mo'ljallangan ssenariy prognozlarini ishlab chiqish;

sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni ta'minlashga doir ilmiy takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti sanoat tarmoqlari faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, guruhlashtirish, zanjirli almashtirish, prognozlashtirish va iqtisodiy-matematik usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi" tushunchasining mazmuni innovatsiyalar asosida jahon bozorida muvaffaqiyatli raqobatlasha olish qobiliyatini ta'minlashning umumiy sharti hisoblangan eksport faoliyatini hududiy dasturlar orqali rivojlantirish doirasida tabaqalashgan imtiyozlar tizimini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "investitsiyaning tuzilmaviy tarkibi" tushunchasi ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori darajada ortib borayotgan yuqori texnologik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ustuvorligini ta'minlash orqali tashqi savdoda mutanosiblikka erishish imkonini beruvchi investitsiya resurslari o'rtasidagi maqbul nisbatga erishish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;



milliy iqtisodiyotda sanoat mahsulotlariga o'sib borayotgan talabni hisobga olib, sanoat ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirish orqali import va eksport o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, investitsiya dasturining tuzilmaviy tarkibini ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori darajada ortib borayotgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo faoliyati rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda hududlar eksportini olg'a siljitish "promotion of regional exports" strategiyasini jahon bozori konyunkturasiga muvofiq eksportni rivojlantirishning hududiy dasturlari asosida eksport tarkibida sanoat mahsulotlari ulushining 2025-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayonida tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq nomutanosibliklarni bartaraf etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

sanoat ishlab chiqarish borasida kadrlar tayyorlashning tuzilmaviy tarkibini o'zgartirish orqali sanoat tarmoqlarida investitsiyalarning markazlashuv muammosini hal etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

hududlar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash tizimi samaradorligini oshirish maqsadida respublika doirasida "texnologiyalar almashinuv platformasi"ning modeli yaratilgan;

respublikada ta'lim resurslarini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari bakalavriat va magistratura bosqichi bitiruvchilarining innovatsion korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda samarali faoliyat yuritishining ta'sirchan mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda amalga oshirilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy takliflardan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish shart-sharoitlari va omillaridan maqsadli foydalanish strategiyasini shakllantirish, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning amaldagi mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy apparatni boyitish, davlat tomonidan raqobatbardosh iqtisodiyotni tizimli qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan usullar va modellarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi takliflardan raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga oid maqsadli davlat dasturlarini shakllantirish, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Raqobat nazariyasi", "Mikroiqtisodiyot-2", "Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish", "Korxonalarini rivojlantirish strategiyasi" kabi

kurslarning fan dasturlari, o'quv qo'llanma va darsliklarini takomillashtirish hamda o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi" tushunchasining mazmuni innovatsiyalar asosida jahon bozorida muvaffaqiyatli raqobatlasha olish qobiliyatini ta'minlashning umumiy sharti hisoblangan eksport faoliyatini hududiy dasturlar orqali rivojlantirish doirasida tabaqalashgan imtiyozlar tizimini joriy etish asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalarini uchun tavsiya etilgan "Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 2-maydagi №394-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o'quv yurtlari talabalarida eksport faoliyatini hududiy dasturlar orqali rivojlantirish doirasida tabaqalashgan imtiyozlar tizimini joriy etish asosida takomillashtirilgan "milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi" tushunchasining mazmuni bo'yicha yangi nazariy bilimlarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "investitsiyaning tuzilmaviy tarkibi" tushunchasi ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori darajada ortib borayotgan yuqori texnologik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ustuvorligini ta'minlash orqali tashqi savdoda mutanosiblikka erishish imkonini beruvchi investitsiya resurslari o'rtasidagi maqbul nisbatga erishish nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalarini uchun tavsiya etilgan "Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagi 654-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o'quv yurtlari talabalarida yuqori texnologik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning ustuvorligini ta'minlash orqali tashqi savdoda mutanosiblikka erishish imkonini beruvchi investitsiya resurslari o'rtasidagi maqbul nisbatga erishish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "investitsiyaning tuzilmaviy tarkibi" tushunchasining mazmuni bo'yicha yangi nazariy bilimlarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

milliy iqtisodiyotda sanoat mahsulotlariga o'sib borayotgan talabni hisobga olib, sanoat ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirish orqali import va eksport o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, investitsiya dasturining tuzilmaviy tarkibini ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori darajada ortib borayotgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo faoliyati rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 7-yanvardagi 04/15-01-10/10-5256-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida

mamlakatda import hajmining eksportga nisbatan yillik qo‘shimcha o‘shir sur‘atini 2-3 foizga qisqartirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda hududlar eksportini olg‘a siljitish “promotion of regional exports” strategiyasini jahon bozori konyunkturasiiga muvofiq eksportni rivojlantirishning hududiy dasturlari asosida eksport tarkibida sanoat mahsulotlari ulushining 2025-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 21-dekabrdagi 11/03-15-10865-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda 2021–2025-yillarda hududlar eksport faoliyatini rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari aniqligini oshirish hamda asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 10 ta ilmiy anjumanlar, jumladan, 3 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslanib, tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqobatbardoshlik kategoriyasining iqtisodiy mazmuni va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqobatbardoshlik kategoriyasining iqtisodiy mazmuni va uslubiy asoslari tadqiq etilgan, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini baholashning mezon va ko‘rsatkichlari tizimlashtirilgan, milliy iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda raqobatbardoshlikni oshirishning o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan.

Jahon iqtisodiyotida davlatlar o‘rtasidagi turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mamlakatlar iqtisodiyotini integratsion munosabatlardagi innovatsion transformatsiyasini ta‘minlash orqali raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Fikrimizcha, bu boradagi tadqiqotlar asosi, jahon xo‘jaligi rivojlanishining amaldagi bosqichida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va raqobatbardoshlik

kategoriyasiga nisbatan iqtisodiy fan tarixida mustahkam o‘rin egallagan iqtisodiy yondashuvlarni chuqur tadqiq etish lozim bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni takomillashuv jarayonlari amerikalik iqtisodchi olim M.Porterning mamlakat raqobatbardoshligini ta‘minlash ustunliklari bilan bog‘liq tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. M.Porter 10 dan ortiq davlatlarning raqobatdoshlik ustunliklarini aniqlaydi. Tadqiqotlari davomida davlatlarning iqtisodiy, harbiy, mehnat va tabiiy resurslar, kapital bilan ta‘minlanganlik darajasi raqobatdoshlik bilan bog‘liq ustuvorliklarni ta‘minlab beradi, degan xulosaga keladi.

MDH iqtisodchi olimlaridan S.V.Shkiotov tadqiqotlarida “milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – ichki va tashqi bozorlarda tan olingan iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari salohiyatining namoyon bo‘lishi”<sup>7</sup> deb ta‘rif beriladi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy xususiyati sifatida ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash imkoniyatini beruvchi takror ishlab chiqarish jarayoni nazarda tutiladi. Yu.V.Lukanin fikricha, “mamlakatning raqobatbardoshligi uning subyektlari raqobatbardoshligi orqali namoyon bo‘ladi. Chunki ma‘lum subyektlar tegishli institutsional asoslarni belgilab, ularni rivojlanishi uchun qulay institutsional muhitni shakllantiradi”<sup>8</sup>.

Mamlakatimizda raqobatbardoshlik kategoriyasini tadqiq etishga doir ilmiy yondashuvlar bozor iqtisodiyoti shakllanishining dastlabki bosqichlari bilan bevosita bog‘liq. Bu borada iqtisodchi olimlardan Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G‘afurovlarning tadqiqotlarida “...ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhitini shakllantirish bozor iqtisodiyotiga o‘tishning shart-sharoitlarini vujudga keltiradi”<sup>9</sup>, degan iqtisodiy fikrlari o‘rinli hisoblanadi.

D.Sh.Bababekova o‘z tadqiqotlarida “milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi-korxonalar, hududlar va hududiy ittifoqlarning xalqaro raqobatga ochiq bo‘lgan holda, daromad va aholi bandligi ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori darajasini saqlab qolish qobiliyati”<sup>10</sup>, deb ta‘rif beradi. A.F.Rasulev va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida “bir mamlakatda qiyosiy va raqobat ustunliklarining integratsiyasi uning global iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi”<sup>11</sup> degan xulosaga keladilar.

Fikrimizcha, raqobatbardoshlik kategoriyasining iqtisodiy mazmuni va uslubiy asoslari yuqoridagi adabiyotlarga muvofiq, mamlakatning tabiiy resurs va mehnat salohiyati, ishlab chiqarishning asosiy vositalar bilan qurollanganlik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashuvi va tadbirkorlik muhitining qulayligi kabi qator omillarga bog‘liq holda tadqiq etilgan. Bu kabi omillarning aksariyatini o‘zgaruvchan

<sup>7</sup> Шкиотов С.В. Конкурентоспособность национальной экономики в условиях глобализации: взаимосвязь политэкономического и институционального подходов: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Ярославль, 2010. -14 с.

<sup>8</sup> Луканин Ю.В. Институциональная конкурентоспособность национальной экономики и основные направления ее развития: автореферат дис. ... кандидата экономических наук. - Саратов, 2013. - 8 с.

<sup>9</sup> Shodmonov Sh.Sh, G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T., “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2005. 205-b.

<sup>10</sup> Бабабекова Д.Ш. Саноат тармоқлари рақобатбардошлигини оширишнинг устувор йўналишлари.// Иқтисод ва молия /Экономика и финансы 2018, №2. 22 б.

<sup>11</sup> O‘zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish / O‘zFA, Iqtisodiyot in-ti; A.F. Rasulevning tahriri ostida. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2011. - 408 б.

ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratsak, raqobatbardoshlik nisbiy xarakterga ega jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu boisdan "milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi" – mamlakat iqtisodiyotida shakllangan raqobat muhitining samarali amal qilish mexanizmi hisoblanadi degan xulosaga kelish o'rinli.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini baholashda, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarini uzoq tarixiy rivojlanish darajasi bilan birga, uning tuzilmaviy tarkibini takomillashuvi bilan bog'liq jarayonlar Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum)ning metodologik xususiyatlariga asoslangan ko'rsatkichlar tizimida o'z aksini topadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Jahon iqtisodiy forumining mamlakatlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini baholashga doir ko'rsatkichlarining vazn koeffitsiyentlari<sup>12</sup>

Tarkibiy guruhlangan omillar	Indeks hisoblashdagi vaznli qiymatlar
<b>Asosiy talab omillari:</b>	
Institutlarning sifat ko'rsatkichlari	25%
Infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi	25%
Makroiqtisodiy barqarorlik darajasi	25%
Tibbiy xizmat va boshlang'ich ta'limning sifat darajasi	25%
<b>Ishbilarmonlik muhitini oshirish omillari:</b>	
Oliy ta'limning sifati va mehnatga faol aholining kasbiy tayyorgarlik darajasi	17%
Mahsulotlarning bozor sig'imi va samaradorlik darajasi	17%
Tovar va xizmatlar bozorining samaradorlik darajasi	17%
Moliya bozorini rivojlanish darajasi	17%
Sanoat ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarligi	17%
Ichki bozor ko'lami	17%
<b>Innovatsion va biznes mukammalligi omillari:</b>	
Biznes muhiti	50%
Innovatsion salohiyat	50%

Bizningcha, mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasini baholashning mezonini va ko'rsatkichlariga doir yuqoridagi yondashuv mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovutlar borasida tegishli xulosa chiqarish imkoniyatini bermaydi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash omillari bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar orasida M.Porter tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. M.Porter tadqiqotlariga muvofiq milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish omillari quyidagi to'rt faktorli model asosida tashkil topadi:

- inson resurslari bilan ta'minlanganlik;
- texnologiyalar va investitsiyalar;
- kapital;
- tashqi iqtisodiy omillar.

So'ngi yillarda jahon iqtisodiyotida ushbu omillarning o'zgarishi bilan bog'liq kombinatsion munosabatlar ta'sirida mamlakat raqobatbardoshligini oshirish

<sup>12</sup> <http://www.m-economy.ru>

omillari orasidan inson resurslariga nisbatan talab hajmi keskin ortdi. Natijada, so‘nggi 10 yillikda Singapur, Tayvan, Malayziya, Tailand kabi qator davlatlar dunyo raqobatbardoshlik reytingida yuqori o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘lmoqdalar (2-jadval).

## 2-jadval

### 2008–2022-yillarda inson kapitali indeksini yuqori o‘shish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni<sup>13</sup>

Davlatlar	Inson kapitali indeksi			Jahon eksportidagi ulushi (mlrd.AQSh dollarida)			Jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (foizda)		
	2008 <sup>14</sup>	2012 <sup>15</sup>	2022 <sup>16</sup>	2008 <sup>17</sup>	2012 <sup>18</sup>	2022 <sup>19</sup>	2008 <sup>20</sup>	2012 <sup>21</sup>	2022 <sup>22</sup>
Singapur	0.83	0.92	0.939	2.16	2.59	4.2	0.27	0.39	0.41
Gonkong	0.842	0.911	0.952	2.78	2.53	1.76	0.48	0.35	0.38
Kanada	0.877	0.906	0.936	3.86	2.48	3.16	2.20	2.44	2.70
Janubiy Koreya	0.832	0.89	0.925	2.36	3.08	2.40	1.82	1.71	1.87
Saudiya Arabistoni	0.749	0.837	0.875	0.98	1.78	2.22	0.55	0.98	0.86

Xususan, 2008–2012-yillarda Janubiy Koreyaning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2.36 foizdan 3.08 foizga ortgan. Saudiya Arabistoni ham inson kapitali indeksi yuqori o‘shish ko‘rsatkichlarini qayd etayotgan davlatlardan biri hisoblanib, 2008-yilda Saudiya Arabistonining inson kapitali indeksi 0.749 ni tashkil etgan bo‘lib, 2012-yilga kelib 0.837 ga yetgan. 2008–2012-yillarda Saudiya Arabistonining jahon eksportidagi ulushi 0.98 foizdan 1.78 foizga ortgan. 2008-yilda jahon eksportidagi ulushi 12.14 foizni tashkil etgan. Jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa 2008-yilda 5.32 foiz, 2012-yilda 5.87 foiz, 2022-yilda esa 6.22 foizni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining hozirgi davrdagi holati va xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligining hozirgi holati tahlil qilingan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish jarayoni va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar baholangan, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasini tadqiq etish orqali undan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Mamlakatning sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholashga doir ko‘plab metodologik yondashuvlar mavjud bo‘lib, ushbu yondashuvlarda tarmoq

<sup>13</sup>Jadval ma’lumotlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, Jahon bankining yillik hisobot materiallaridan foydalanilgan holda muallif tomonidan umumlashtirilgan.

<sup>14</sup> [https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/human\\_development/](https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/human_development/)

<sup>15</sup> [https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/human\\_development/](https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/human_development/)

<sup>16</sup> <https://gtmarket.ru/ratings/human-development-index>

<sup>17</sup> <https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/WLD/Year/2020/TradeFlow/Export>

<sup>18</sup> <https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/WLD/Year/2020/TradeFlow/Export>

<sup>19</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA\\_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BD\\_%D0%BF%D0%BE\\_%D1%8D%D0%BA%D1%81%D0%BF%D0%BE%D1%80%D1%83](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BD_%D0%BF%D0%BE_%D1%8D%D0%BA%D1%81%D0%BF%D0%BE%D1%80%D1%83)

<sup>20</sup> <https://gtmarket.ru/ratings/gross-domestic-product-ranking>

<sup>21</sup> <https://gtmarket.ru/ratings/gross-domestic-product-ranking>

<sup>22</sup> <https://gtmarket.ru/ratings/gross-domestic-product-ranking>

raqobatbardoshligini aniqlash mezonini sifatida subyektlarning iqtisodiy faoliyat samaradorligi olingan. Bizningcha, sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholashda tizimlashgan ko'rsatkichlarni quyidagicha ifodalash mumkin (3-jadval).

### 3-jadval

#### Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini reyting asosida baholovchi ko'rsatkichlar tizimi<sup>23</sup>

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholovchi ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarning oraliq intervali	Har bir ko'rsatkich balli
Sanoat ishlab chiqarishning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi	$9 < x \leq 19$	12
Sanoat ishlab chiqarish hajmini o'zgarishi sur'ati	$8 < x \leq 17$	12
Sanoat tarmoqlari eksport hajmini yillik o'zgarish sur'ati	$7 < x \leq 15$	12
Sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligi	$6 < x \leq 13$	12
Sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning aholi jon boshiga taqsimoti	$5 < x \leq 11$	10
Sanoat tarmoqlarida sanoat korxonalarining sof foydasi (zarari)	$4 < x \leq 9$	10
Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini o'zgarish sur'ati	$3 < x \leq 7$	8
Sanoat ishlab chiqarishda asosiy fondlarni yangilanish koeffitsiyenti	$2 < x \leq 5$	8
Sanoat korxonalarini tomonidan innovatsiyalarga qilingan xarajatlar	$1 < x \leq 3$	8
Sanoat ishlab chiqarishning energiya sig'imi	$0 < x \leq 1$	8

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholashning reyting tizimi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni oraliq natijalari  $0 < 45$  oralig'ida kuchsiz,  $46 \leq 70$  oralig'ida o'rta,  $71 \leq 100$  oralig'ida kuchli raqobatbardoshlik mavqeiga ega bo'lgan tarmoq hisoblanadi (4-jadval).

### 4-jadval

#### Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholashning natijaviy ko'rsatkichlari<sup>24</sup>

Ko'rsatkichlar oraliq intervali	Guruhlar
$0 < 45$	Kuchsiz raqobatbardoshlik mavqeiga ega bo'lgan tarmoq
$46 \leq 70$	O'rta raqobatbardoshlik mavqeiga ega bo'lgan tarmoq
$71 \leq 100$	Kuchli raqobatbardoshlik mavqeiga ega bo'lgan tarmoq

2018–2022-yillarda ishlab chiqarish sanoati raqobatbardoshligini reyting baholash natijalariga asosan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoati 72 ball, ichimliklar va tamaki sanoati 36 ball, noziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) sanoati 48 ball, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallari sanoati 48 ball, kimyoviy vositalar va boshqa toifaga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati 60 ball, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari 80 ball, mashinalar va transport asbob-uskunalar sanoati 56 ball, turli xil tayyor buyumlar sanoati 48 ballik ko'rsatkichni qayd etadi (5-jadval).

<sup>23</sup> Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>24</sup> Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.

2018–2022- yillarda sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini reyting asosida baholash natijalari<sup>25</sup>

Ishlab chiqarish sanoati tarmoqlari	Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholovchi ko'rsatkichlar										
	Sanoat ishlab chiqarishning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (9<x≤19)	Sanoat ishlab chiqarish hajmini o'zgarishi sur'ati (8<x≤17)	Sanoat tarmoqlari eksport hajmini yillik o'zgarish sur'ati (7<x<15)	Sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligi (6<x≤13)	Sanoat tarmoqlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning aholi jon boshiga taqsimoti (5<x≤11)	Sanoat tarmoqlarida sanoat korxonalarining sof foydasi (zarari) (4<x<9)	Sanoat tarmog'larida mehnat unumdorligini o'zgarish sur'ati (3<x≤7)	Sanoat ishlab chiqarishda asosiy fondlarni yangilanish koeffitsiyenti (2<x≤5)	Sanoat korxonalari tomonidan innovatsiyalarga qilingan xarajatlar (1<x≤3)	Sanoat ishlab chiqarishning energiya sig'imi (0<x≤1)	Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholashning natijaviy ko'rsatkichlari
Oziq-ovqat mahsulotlari	0	12	12	12	10	10	8	8	0	0	72
Ichimliklar va tamaki	0	0	0	0	10	10	8	8	0	0	36
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0	12	0	0	10	10	8	8	0	0	48
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0	0	0	12	10	10	8	8	0	0	48
Kimyoviy vositalar va boshqa toifaga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0	12	0	12	10	10	8	8	0	0	60
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0	12	12	12	10	10	8	8	8	0	80
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0	12	0	0	10	10	8	8	8	0	56
Turli xil tayyor buyumlar	0	0	12	0	10	10	8	8	0	0	48

<sup>25</sup> Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.



Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini reyting asosida baholash natijalarini quyidagicha guruhlash o‘rinli (6-jadval).

**6-jadval**

**Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini baholashning natijaviy ko‘rsatkichlari<sup>26</sup>**

<b>Ko‘rsatkichlarning oraliq intervali</b>	<b>Guruhlar</b>
0<45- kuchsiz raqobatbardoshlik mavqeiga ega bo‘lgan tarmoqlar	ichimliklar va tamaki
46≤70- o‘rta raqobatbardoshlik mavqeiga ega bo‘lgan tarmoqlar	nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari); mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar; kimyoviy vositalar va boshqa toifaga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar; mashinalar va transport asbob-uskunalari; turli xil tayyor buyumlar
71≤100- kuchli raqobatbardoshlik mavqeiga ega tarmoqlar	asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari; oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo‘lgan tarmoqlar

Sanoat tarmoqlarini kompleks rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini muvofiqlashtirish mexanizmi borasida Xitoy yetakchi tajribaga ega. Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish borasida Xitoy tajribasidan samarali foydalanish mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va raqobatbardoshligini ta’minlashning o‘rta va uzoq muddatli strategik yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatini beradi.

Xitoy sanoati raqobatbardoshligini oshirishda hududiy yondashuvlar bilan birga yuqori texnologiyalarni tijoratlashtirish va sanoat ishlab chiqarishga yo‘naltirish jarayonlariga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi texnoparklar faoliyati muhim o‘rin egallaydi. 1988-yildan boshlab Xitoy iqtisodiyotida yuqori texnologiyalarni tijoratlashtirish va sanoat ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan texnologik markazlar faoliyati sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta’minlash bilan bog‘liq quyidagi ustuvorliklarni ta’minlab bermoqda:

sanoat ishlab chiqarishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar samaradorligini oshirish;

iste’mol bozorida sanoat mahsulotlarining hayotiylik siklini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion omillardan samarali foydalanish;

fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida samarali integratsion jarayonlarni ta’minlash;

davlatning innovatsion ishlab chiqarish jarayonlariga doir giperfaol sanoat siyosatiga yo‘naltirilgan harakatlar dasturini ta’minlash;

sanoat korxonalarida real vaqt rejimiga moslashuvchan ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq risklarni samarali boshqarish va boshqalar.

<sup>26</sup> Tadqiqotlarga asoslangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

Qozog‘iston Respublikasi sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta‘minlashda tarmoqlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlarga ustuvorlik berilayotgan bo‘lib, sanoatni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari innovatsion sanoat siyosatiga asoslanadi. Innovatsion sanoat siyosati, sanoat tarmoqlari faoliyatini davlat tomonidan texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Qozog‘iston sanoatida davlatning innovatsion sanoat siyosatini amalga oshirish mexanizmida zamonaviy bozor modelining amal qilishi undirma sanoat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy figurasi sifatida xizmat qilmoqda.

Qozog‘iston sanoatida investitsion loyihalarni moliyalashtirishni aralash mexanizmi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va taqsimlash tizimi samaradorligini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sanoat tarmoqlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoni quyidagi taqsimotga ega:

- ustuvor investitsiya loyihalari;
- ustuvorlikka ega bo‘lmagan investitsiya loyihalari;
- maxsus investitsiya loyihalari.

Sanoat tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda quyidagi imtiyozlar taqdim etiladi:

investitsion loyihalar bilan bog‘liq texnika va texnologiyalarni bojxona to‘lovlari va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish;

investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonidagi imtiyozlar;

ustuvor investitsiya loyihasi doirasida taqdim etiladigan soliq imtiyozlari;


Qozog‘iston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lashdan ozod qilish<sup>27</sup>.

Dissertatsiyaning “**Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida innovatsion texnologiyalar bozorini rivojlantirish hisobiga sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari asoslangan, sanoat tarmoqlarida iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellashtirish orqali raqobatbardoshligini ta‘minlash omillari tizimlashtirilgan, sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo‘naltirilgan investitsion faollikni oshirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Sanoatda innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni tizimli asosda tashkil etish jarayoni, sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion mexanizmini muvofiqlashtirish darajasiga bog‘liq. Sanoat korxonalarining mustaqil ilmiy-texnik, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarini yo‘lga qo‘yish jarayonida moliyaviy imkoniyatlari cheklangan korxonalarining innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan quyidagi texnologiyalar platformasini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq (1-rasm).

---

